

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI QO'MITASI



SANITARIYA - EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI QO'MITASI XODIMLARI UCHUN
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID
O'QUV QO'LLANMA

I. SANITARIYA - EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI QO'MITASI SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH.



Korrupsiya - lotincha "corrumpo"
buzilish, aynish, tanazzul degan
ma'nolarni anglatadi.

"Korrupsiya - shaxsning o'z mansab
yoki xizmat mavqeidan shaxsiy
manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki
nomoddiy naf olish maqsadida
qonunga xilof ravishda foydalanishi,
xuddi shuningdek, bunday nafni
qonunga xilof ravishda taqdim etish"

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan qabul
qilingan normativ-huquqiy hujjatlar.

- **2017-yil 3-yanvar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi**
O'zbekiston Respublikasi Qonuni,

- 2019-yil 27-may O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-Farmoni,
- 2020-yil 29-iyun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6013-Farmoni,
- 2021-yil 6-iyul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5177-Qarori,
- 2023-yil 27-noyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-200-Farmoni,

Korrupsiyaga oid tushunchalar:

Korrupsiyaviy jinoyatlar – bu mansabdor shaxs yoki xizmatchining mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning moddiy va nomoddiy naf ko'rish uchun g'arazli maqsadlarda foydalanishidan, shuningdek mansabdor shaxslarni ushbu maqsadlarda o'ziga og'dirishdan iborat bo'lgan jinoyatlardir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.



Pora - ya'ni mansabdor shaxs yoki xizmatchi tomonidan o'z xizmat mavqeidan yoki o'z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi tushuniladi.

Pora olish – davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi.

Pora berish – davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish.

Pora olish-berishda vositachilik qilish – pora olish- berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish.

Pora evaziga og'dirib olish – davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI
QO'MITASI



Korrupsiya ?

Shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan, shaxsiy manfaatlari yoxud o'zga shaxslarning manfaatlari ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda o'zga shaxslarga taqdim etishi.

Korrupsiya oqibatlari.

- Bugungi kun va kelajak taraqqiyotini barbod etadi,
- Fuqarolarning davlat idoralari bo'lgan ishonchini yo'qatadi,
- Korrupsiya sizga ta'sir ko'rsatadi, hatto uning ishtirokchisi bo'lmasangiz ham,
- Korrupsiya sohalar taraqqiyotining tannazulga yuz tutishiga olib keladi.

Pora olish

Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlari ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklari olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi.

Ushbu qilmish;

bazaviy hisoblash miqdorining 50-100 baravarigacha miqdorda jarima, muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Takroran, ko'p miqdorda. tamagirlik yo'li bilan yoki bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa,

5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Juda ko'p miqdorda, uyushgan guruh manfaatlari ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar.

✓ 2017-yil 3-yanvar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni,

✓ 2019-yil 27-may O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5729-Farmoni,

✓ 2020-yil 29-iyun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6013-Farmoni,

✓ 2021-yil 6-iyul O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5177-Qarori,

✓ 2023-yil 27-noyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-200-Farmoni,

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida qonuni 2-modda

Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

✓ O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi 78/ 888 01 01 (066)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-81-sonli Qarori



Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo'nalish bo'yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshiriladi:

— **birinchi yo'nalish** — davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amalga oshirishga qaratilganligi;

— **ikkinchi yo'nalish** — korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

— **uchinchi yo'nalish** — davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

— **to'rtinchi yo'nalish** — xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

— **beshinchi yo'nalish** — korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 ballidan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" toifalarga ajratiladi.

- **"yaxshi"** — faoliyat samaradorligi 81 ballidan 100 ballgacha to'plagan davlat tashkiloti;
- **"qoniqarli"** — faoliyat samaradorligi 55 ballidan 81 ballgacha to'plagan davlat tashkiloti;
- **"qoniqarsiz"** — faoliyat samaradorligi 55 dan past ball to'plagan davlat tashkiloti.



Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash yo'nalishlari bo'yicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:

- **birinchi yo'nalish** — maksimal 35 ball;
- **ikkinchi yo'nalish** — maksimal 30 ball;
- **uchinchi yo'nalish** — maksimal 15 ball;
- **to'rtinchi yo'nalish** — maksimal 15 ball;
- **beshinchi yo'nalish** — maksimal 5 ball



Reyting baholash yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar:

- **"yaxshi"** deb baholangan davlat tashkilotlariga ularning korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul tarkibiy bo'linmalari xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritib boriladi va ijroviy ish tadbirlari boshqa davlat tashkilotlarida ommalashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.
- Reyting baholash natijalariga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi **"qoniqarli"** deb topilgan davlat tashkilotlariga samaradorlikni yanada oshirish bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan har yili 15-martga qadar tavsiyalar kiritiladi.
- Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi **"qoniqarsiz"** deb topilgan davlat tashkilotlari har yili 20-martga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqishi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan holda tasdiqlashi lozim.
- Ketma-ket ikki yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi **"qoniqarsiz"** deb topilgan davlat tashkilotlari rahbarlariga belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik choralari qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi 78/ 888 01 01 (066)

II. SANITARIYA - EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASI SOHASIDA ENG KO'P UCHRAYDIGAN KORRUPSIYAVIY JINOYATLAR.

- O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish;
- Firibgarlik;
- Tijoratda pora evaziga og' dirib olish;
- Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og' dirib olish;
- Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish;

Mansabdor shaxs - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Xizmatchi - davlat organida, tijorat, notijorat tashkilotida mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi, mansabdor shaxs alomatlariga ega bo'lmagan shaxs.

- Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish;
- Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish;
- Mansab soxtakorligi;
- Pora olish;
- Pora berish;
- Pora olish-berishda vositachilik qilish;



III. KORRUPSIYA ISHTIROKCHILARI KIMLAR?

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning keng tarqalgan turlaridan biri bu soʻzsiz – poraxoʻrlikdir.

Poraxoʻralik jinoyatlarida jinoyat jarayoni ishtirokchilari sifatida, bir tarafdin – pora oluvchi, ikkinchi tarafdin esa – pora beruvchi ishtirok etadi.

Ayrim hollarda ushbu jinoiy harakatlarda pora olish-berishda vositachilik qiladigan shaxs ishtirok etishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Mana shu uch turdagi shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ishtirokchilari boʻlishi mumkin.

Pora oluvchi kim?

mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat boʻyicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qatʼi nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, maʼmuriy-xoʻjalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, maʼmuriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

hokimiyat vakili – davlatning biron-bir hokimiyat organining nomidan ish koʻrib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va oʻz vakolatlari doirasida koʻpchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy boʻlgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega boʻlgan shaxs.

xizmatchi – davlat organida, tijorat, notijorat tashkilotida mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi, mansabdor shaxs alomatlariga ega boʻlmagan shaxs.

Pora beruvchi kim?

Mansabdor shaxsga oʻzi yoki boshqa bir shaxslarnig manfaatlarini koʻzlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita oʻzi yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar beruvchi yoki mulkiy manfaatdor etuvchi jismoniy shaxs – pora beruvchidir.

jismoniy shaxs– bu 16 yoshga toʻlgan, aqli raso Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxsdir.

vositachi – pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat bilan shugʻullangan, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirigʻi bilan porani bevosita bergan shaxs.

Pora predmeti:

pul;

qimmatbaho sovgʻalar va moddiy narsalar;

moddiy qiymatga ega boʻlgan xizmatlar (masalan, taʼmirlash, qurilish, qayta tiklash ishlarini bajarish va boshqalar).

Quyidagi korrupsion qilmishlar jinoyat hisoblanadi:

- *Bepul xizmatlar uchun fuqarolardan moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo'lish;*
- *Fuqarolardan moddiy qimmatliklar olish yoki ulardan mulkiy manfaatdor bo'lish maqsadida tamagirlik qilish, shuningdek suniy ravishda tibbiy xizmatlarni taqchilligini yuzaga keltirish;*
- *Keraksiz va hech qanday zaruriyatsiz laboratoriya va boshqa xizmatlarni qabul qildirish;*
- *Xujjatlarga soxta yozuvlar kiritib, aslida ko'rsatilmagan laboratoriya va boshqa xizmatlarni bajarilgan deb ko'rsatish;*
- *Bepul vaksina, zararsizlantiruvchi vositalarni sotish;*
- *Muassasalarning mol-mulkini talon-taroj qilish;*
- *Soxta ma'lumotnomalarni va sanitariya-epidemiologik xulosa va boshqa ruxsat etuvchi xujjatlarni rasmiylashtirish;*
- *Ma'lum bo'lgan faktlarni yashirish yoki xiqiqatda bo'lmagan faktlarni tasdiqlash (odatda ovqatdan zaxarlanish, yuqumli kasalliklarni kelib chiqishi va tarqalishi hamda obektlarda sanitariya-gigienik tekshiruvlar o'tkazish jarayonida aniqlangan xolat va kamchiliklarni yashirish).*

IV. KORRUPSIYANING XAVFLILIK DARAJASI.

Korrupsiya – jamiyatning rivojlanishi va demokratik davlat qurish yo'lidagi eng katta to'siq. U davlat va jamiyatning barcha sohalarini o'z iskanjasiga olishi mumkin. Masalan, iqtisodiyot, huquq-tartibot, ta'lim, shuningdek, davlatning har qanday sohasi korrupsiya natijasida ishdan chiqadi.

Bilamizki, xalq davlatning birdan bir manbaidir. Bu borada davlat o'z oldiga qo'ygan oliy maqsadlarini amalga oshirish uchun yaxlit mexanizmdan tashkil topgan. Ushbu mexanizmning har bir detali to'g'ri ishlagan taqdirdagina, davlat har tomonlama rivojlana oladi. Biroq, korrupsiya ushbu mexanizmni ishdan chiqishiga olib keladigan eng illatdir. Ushbu illatning eng nozik qurbonlaridan biri, shubhasiz, demokratiyadir. Demokratik davlatda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlanishi, inson oliy qadriyat darajasiga chiqishi lozim. Korrupsiya esa kuchli demokratik davlat qurish yo'lidagi eng asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.




V. KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN QANDAY JAZO BELGILANGAN?

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga ko'ra korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun quyidagi jazo turlari biri yoki bir-nechtasi sodir etilgan qilmishning yengil yoki og'irligiga qarab tayinlanishi mumkin.

- Jarima;
- Muayyan huquqdan mahrum qilish;
- Majburiy jamoat ishlari;
- Axloq tuzatish ishlari;
- Ozodlikni cheklash;
- Ozodlikdan mahrum qilish;
- Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish.





VI. SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASI TIZIMI XODIMLARI UCHUN ESLATMA.

Sizga pora taklif qilishmoqda, siz nima qilishingiz kerak?

Hurmatli Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning tarkibiga kiruvchi muassasalar hamda hududiy boshqarmalari va tuman (*shahar*) bo'limlari xodimlari!

Korrupsiya har qachon dunyo davlatlari taraqqiyoti va inson kelajagining kushandasi bo'lib kelgan. O'zingizning martabangizni va yaxshi nomingizni foyda uchun qurbon qilmang!

Esingizda bo'lsin, poraxo'rlik - bu qonun bilan jazolanadigan jinoyatdir!

Agar sizga pora taklif qilinsa, shu jumladan qat'iy va takroran, pora olishni rad eting va holat to'g'risida muassasa rahbariyatiga yoki huquqni muhofaza qilish idoralariga xabar bering (*iloji boricha ko'proq ma'lumotlarni eslab qoling - pora taklif qilgan shaxsning ismi, pora berish shartlari, miqdori va boshqalar*).

Har bir inson mustaqil qaror qabul qiladi !!!



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI
QO'MITASI



SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASI
TARKIBIDAGI RESPUBLIKA MUASSASALARI HAMDA HUDUDY BOSHQARMALAR VA ULARNING
TUMAN (SHAHAR) BO'LIMLARIDA
KORRUPSIYA HOLATIGA DUCH KELSANGIZ

BIZGA XABAR BERING

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi
+998 78 888 01 01 (066)

Murojaatlar bo'limi
+998 78 888 01 01 (011)

Fuqarolar, soha xodimlari va tadbirkorlar
murojaatlarini yo'llash uchun maxsus
telegram bot

anticorruption
telegram kanal

KORRUPSIYA - INSON KELAJAGI, BALKI BUTUN MILLAT VA DAVLAT KELAJAGINI AMALDA BARBOD ETUVCHI ILLATDIR

VII. AGAR SIZ KORRUPSIYA HAQIDA MUROJAAT QILMOQCHI BO'LSANGIZ.


Korrupsiya holati yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishni lozim deb topdiz;

Sizning harakatlaringiz:

1-QADAM: Huquqni muhofaza qiluvchi organga ariza bilan murojaat qilish kerak.

Jinoyat haqida xabar berishda quyidagilarni ko'rsatib o'tishingiz lozim:

1. qachon, qayerda va kim orqali mansabdor shaxs pora sifatida pul talab qilgan;
2. mansabdor shaxsning pora talab qilinganlik fakti qaysi harakatlarida ifoda etilgan;
3. pora sifatida nima, qachon va qaysi ishni hal qilganlik uchun berilishi;
4. navbatdagi uchrashuv qachon qaerda va nima maqsadda belgilanganligi;
5. pora qachon, qayerda berilishi.



Yozma shaklda murojaat qilganda, korrupsiya holati bo'yicha ariza bilan murojaat qilgan shaxsning F.I.Sh. va manzili ko'rsatiladi va imzo qo'yiladi.

Og'zaki shaklda murojaat qilganda, korrupsiya holati bo'yicha bayonnoma tuziladi, unga arizachi va bayonnoma tuzuvchi imzo qo'yadi, hujjatda arizachi haqida ma'lumot, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatib o'tiladi.

2-QADAM: Arizangiz haqiqatdan ham qabul qilinganligiga ishonch hosil qiling.

Ariza qabul qilingandan so'ng arizachiga murojaat qabul qilinganligi haqida hujjat beriladi. Bu arizangiz nusxasi ham bo'lishi mumkin. Ariza qabul qilinganligi to'g'risidagi hujjatda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

1. arizani qabul qilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi haqida ma'lumot;
2. uning imzosi;
3. arizaning ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami;
4. qabul qilish sanasi;
5. qabul qilgan organ nomi, manzili va telefon raqami.

3-QADAM: Arizangiz ko'rib chiqilishini nazorat qilish.

Siz bergan arizangizning natijasi va ko'rilgan choralar haqida ma'lumot olishga haqlisiz.

4-QADAM: Shikoyat qilish.

Agarda, korrupsiya holati yuzasidan bergan arizangizni qabul qilinmasa, Siz yuqori turuvchi organga **shikoyat** bilan murojaat qilishingiz mumkin. Masalan: tuman prokuraturasi korrupsiya holati bo'yicha arizangizni qabul qilmadi, viloyat yoki Bosh prokuraturaga murojaat qilishingiz mumkin.

DIQQAT!!!

- Yolg'on xabar berganlik uchun Jinoyat kodeksining 237-moddasida;
- Tuhmat qilganlik uchun Jinoyat kodeksining 139- moddasida;
- Tuhmat qilganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida javobgarlik belgilangan hamda bu harakatlar javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Pora berishga undash sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan iboralar:

- "masalani hal qilish qiyin, lekin hal qilsa bo'ladi";
- "kelishamiz";
- "endi nima qilamiz";
- "rahmatni nonga surtib bo'lmaydi";
- "parametrlarni kelishib olishimiz kerak";
- "kuchliroq argumentlar kerak bo'ladi".
- "Bu oson bitadigan ish emas";

- yuqoridagilar bilan kelishish va ularni roziligini olish lozim;
- Masalangiz tezroq hal bo'lishi uchun "yo'talishingiz" kerak bo'ladi;
- Masalani hal qilish bir qator qiynchiliklar mavjud, lekin...

Quyidagi mavzularda suhbat olib borish pora berishga taklif deb tushunilishi mumkin:

- Mansabdor shaxs yoki xizmatchining oylik maoshi kamligi, ayrim ehtiyojlarini qondirishi uchun pul mablag'lari yetmayotganligi;
- Biror-bir mol-mulkni sotib olish yoki ma'lum bir xizmatdan foydalanish, biror manzilga turistik sayohatga borish niyati borligi;
- Mansabdor shaxs yoki xizmatchining qarindoshlari ishsiz yurganligi, ular pulga muxtojligi;
- Farzandlarini ta'lim muasasasiga joylashtirish zaruratini va v.k

VIII. QAYERGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Yashash joyingizga yaqin joylashgan huquqni muhofaza qiluvchi organning hududiy bo'linmalariga og'zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qilish mumkin:



O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

Pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Sh.Rustavili ko'chasi, 8A), Telefon raqam (71) 202-04-00 (ichki raqam 505),

Elektron manzil: www.anticorruption.uz, **el.pochta:** info@anticorruption.uz, anticor@exat.uz.



O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

Viloyat, tuman, shahar, prokuraturasiga tashrif buyurib;

1007 qisqa raqamli Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish (71) 232-10-07 yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali **prokuratura.uz**

pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Ya.G'ulomov ko'chasi, 66-uy).



O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Yu.Rajabiy ko'chasi 1-uy indeks 100029); hududiy boshqarma va bo'limlariga tashrif buyurib, shaxsan taqdim etish, vazirlikning 1102 qisqa raqamli Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish, to'g'ridan-to'g'ri [elektron](#) shaklda murojaat qoldirish.



O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh. Sayilgoh ko'chasi 5uy, indeks100047); hududiy boshqarma va bo'limlariga tashrif buyurib, shaxsan taqdim etish;

vazirlikning 1008 qisqa raqamli Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish, to'g'ridan-to'g'ri elektron shaklda murojaat qoldirish.



Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh., Ya.G'ulomov ko'chasi, 39A-uy); 71-233-1007 raqamli Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish, to'g'ridan-to'g'ri elektron shaklda murojaat qoldirish.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi

pochta xizmati orqali yuborish (Manzil: Toshkent sh.Chilonzor tum. 46 uy) 78/888 01 01 (066) (011)Ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilish, sanepid.uz rasmiy web-sayti orqali murojaat qoldirish.